

“YAKKA AHMAD VA ERNAZARXON” DOSTONLARIDAGI OBRAZLARING QIYOSIY TADQIQI

*“Yakka Ahmad va Ernazarxon”
dostonlaridagi obrazlarning qiyosiy tadqiqi
To'laganova Nilufar Nigmat qizi*

ANNOTATSIYASI

Ushbu maqola o'zbek folklorshunosligi uchun muhim hisoblangan “Yakka Ahmad va Ernazarxon” dostonlaridagi obrazlarning qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan. Maqola magistrlar, mustaqil izlanuvchilar hamda doktorantlar uchun mo'ljallangan.

San'atning boshqa turlari kabi badiiy adabiyot ham hayotni undagi insonlarning ruhiy holati, o'y-fikrlarini aks ettiradi. Inson tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra adabiyotda markaziy o'rinni egallovchi tushuncha ham obraz qahramon tushunchasidir. Obraz-timsol tushunchasini anglatadi. Obraz-ijodkorning fikrtuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi. Jo'n qilib aytadigan bo'lsak, badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini anglatadi.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining “Yakka Ahmad” dostonida Oqbilak ro'molining uchiga xat tugib jo'natadi. O'zbek xalqi orasida nikoh to'yi marosimlarining ko'pchilik uzvlari ro'mol, ro'molcha ishtirokida o'tadi. Jumladan, qiz va yigitning unashtirilganini xalqqa ma'lum qilish maqsadida “ro'mol to'yi” o'tkaziladi. O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida “ro'mol to'yi” nikoh to'yi marosimlari tizimining tayanch bo'g'inlaridan hisoblanadi. N.P.Lobacheva “ro'mol to'yi” Qoraqalpoq nikoh to'yining tarkibiy qismlaridan biri ekanligini yozgan. Markaziy Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar orasida ham bu an'ananing keng yoyilganligi nikoh marosimidagi ayni halqaning qadimdan kelayotganligini dalillaydi. Ro'mol bilan bog'liq marosim, odatlar chegarasi bu bilan cheklanmaydi. Yigit tomon qizga jo'natgan sarpolar taxining “oq ro'mol”dan boshlanishi, kuyovning go'shargasiga kirib, “soch silar” {soch siypatar} udumida shoyi ro'mol bilan kelin sochini silashi, nikoh to'yida ikki yoshning bir oila qurganliklarining ramziy belgisi sifatida “ro'molcha” tarqatilishini esga olish kifoya. Motam marosimida ham mayit qabrga qo'yilgach, ro'molcha yoki belbog'ning kelganlarga ulashilishi bejiz emas. Sanab o'tilgan urf-odatlar ertak va dostonlarda ham o'z badiiy ifodasini topgan.¹ “Alpomish” dostonida Qalmoq yurtiga ko'chib borgan Boysarini ko'rib kelish uchun borayotgan Surxayl kampirdan, Qorajon yo'l bo'lsin, deb so'raganida, Surxayl kampir: Atashtirib ro'mol berib kelaman,-deb javob beradi.

¹ Turdimov Sh. Fan nashriyoti. Toshkent 2020

Surxayl kampirning “atashtirib ro‘mol berib kelaman”, “kelin qilib biror ro‘mol o‘rayin” deb aytishi zamirida qadimdan ikki tomonning quda bo‘lganligini qiz va yigitning unashtirilib, bir oilaga birikkanligining ramziy belgisi sifatida ro‘mol kelayotganligini bildiradi.

“Yakka Ahmad” dostonida Oqbilak Ahmadbekka ro‘mol tikib yuboradi. Yorning dil izhori bo‘lgan bu ro‘molni Ahmadbek beliga bog‘lab yuradi. Sorixon Eronga ko‘chganidan keyin ro‘mol unga doimo yorini eslatib turadi. Ahmadbekning boshiga og‘ir kunlar tushganini, kelgan “quda” larning dushman ekanligini Oqbilak shu ro‘molni Boboayyor qo‘lida ko‘rib biladi. Ro‘mol dostonida yoshligidan bir-biriga atashtirib qo‘yilgan Ahmad va Oqbilak sevgisini o‘zida bo‘rttirib, ko‘rsatuvchi bir badiiy detal vazifasini o‘taydi. Xalqning tush ta‘birida ro‘molning yo‘rig‘i diqqatga sazovor. Aytilishicha, qiz bola tushida ro‘mol o‘rasa, o‘ngida turmushga chiqadi. Yigit tushida ro‘mol olsa, uylanadi. Qizlarning “dil izhori” sifatida yigitlarga ro‘mol, qiyiq, ro‘molcha sovg‘a qilishi ham ro‘mol haqidagi umumtasavvur asosida paydo bo‘lgan. Ch.Aytmatovning “Erta qaytgan turnalar” qissasida Mirzagulning Sultonmurodga “dil izhor” sifatida ro‘molcha sovg‘a qilishi ayni urf-odatning boshqa turkiy xalqlar orasida ham keng tarqalganligidan dalolat beradi. Faktlar ko‘rsatmoqdaki, ro‘mol, ro‘molcha xalq marosimlarida “oila” ni birlashtiruvchi magik ramziy buyum vazifasini o‘tamoqda. Bu ramziy tasavvur uning ba‘zi irim odatlarida “oila qurish” jufti halol bo‘lish, sevgi izhori” ning ramziy belgisi sifatida qo‘llanishiga ham asos bo‘lgan.²

Ushbu variantdan farqli ravishda Rahmatilla Yusuf o‘g‘lining “Yakka Ahmad” dostonida Oqbilak ikki gaz qora ipdan matolar olib, belqars qildiradi. Anvoyi hayvonlar, gullarning sur‘atini chizdirib, uning o‘rtasiga o‘zining sur‘atini chizdiradi.

Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Yakka Ahmad” variantida Ahmad dovyurak, tez qaror qabul qila oluvchi, yori uchun har qanday to‘siqlarni yengishga tayyor obraz sifatida gavdalanadi. Xatni olishi bilan otasining qarshiligiga ham qaramasdan yo‘lga otlanadi.³

Eshitib ol menday o‘g‘ling so‘zini,
Yor uchun sarg‘aytar gulday yuzini.
Men izlayman ketgan shoxning qizini,
Araz urib ketgan jonning o‘zini.

Rahmatilla Yusuf o‘g‘lining “Yakka Ahmad” variantida esa Ahmad qo‘rqoq, ikkilanuvchan, bexush inson sifatida tasvirlanadi.

Hey attang-a, nega Kashal bormadim,
Oqbilakoy bilan davron surmadim,
Behushlikda o‘zim bilmay, Qaldirg‘och,

² Turdimov Sh. Fan nashriyoti. Toshkent 2020.

³ ZO ‘FA Inv 22.Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, “Yakka Ahmad” dostoni

So'ng Kashallik xabarchini ko'rmadim?

Tegradoshim bir o'y chirmab olibdi,

Karvon bobom uzab ketib qolibdi,

Bundan keyin ne istarim bilmayman,

Shuytib akang lolu hayron bo'libdi.⁴

Men Kashalga Shoxdorshohning Sarixonga bergan muhlatidan oldin bora olamanmi? Borganda ham o'zim unday ulug' podsho bilan barobar bo'la olamanmi,- deb dovdorab qoldi. Shunda Qaldirg'och oyim akasining bunday bo'shangligiga achchig'i keldi. Qahramonning ruhiyatida ikkilanish, o'ziga ishonmaslik, beqarorlik holatlari namoyon bo'ldi. Epos mantig'iga ko'ra, dostonning bosh qahramoni alplik hislatlariga ega bo'lishi, mard, dovyurak, har qanday qiyinchiliklarga bardosh bera olishi lozim. Ushbu doston syujeti liniyasida esa buning aksiga guvoh bo'lamiz.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Yakka Ahmad" variantida Baxil pari deb nomlangan obraz mavjud. Ushbu obraz oldindan Ahmadning boshiga tushadigan shiddatli kurashlardan ogoh etadi. Xususan, Baxiloy degan bir pari har haftada, o'n kunda bir kelib, Qaldirg'ochoy bilan gaplashib ketar edi. Shu pari aytar edi: "Chechang-Oqbilakka sovchi keldi, bir yilga muhlat oldi. Qirq zangi bir rabot qilib, bir bandargohda akangning yo'lini to'sib yotibdi. Undan nari olti kunlik yo'lda Xonchorbog' degan bir joyda Boboayyor qirq shogirdi bilan akangning yo'lini angib yuribdi",-der edi.⁵

Rahmatilla Yusuf o'g'lining "Yakka Ahmad" variantida esa mantiqiy jihatdan Baxil pari obraziga o'xshash Sursuluv pari obrazi dostonga kiritilgan. Ushbu obraz doston voqealari davomida ikkinchi planda. Birinchi planda esa Qaldirg'och obrazi turadi. Bu dostonda Yakka Ahmadning boshiga tushadigan kulfatlardan Qaldirg'ochning o'zi ogoh etadi. Qaldirg'ochga Sursuluv ham, romchi ham hech kim aytmaydi. Uning o'zi biladi. Dostonning aynan mana shu joyida Qaldirg'och kattalarning xangomalariga quloq solgan deyilgan. Demak, agar shunday bo'lsa, Ergash Jumanbulbul o'g'li tomonidan ijro etilgan "Yakka Ahmad" dostoni ushbu variantdan nisbatan oldinroq ijro etilgani hamda ushbu dostonidan xalq xabardor bo'lganligi mantiqiy jihatdan haqqoniy aks etgan. Shuning uchun ham Qaldirg'och syujet rivojidan yaxshi xabardor. Bundan tashqari, Ahmad yo'lda uchragan Sursuluvga qaramadi.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining variantida esa Ahmad Baxil pariga yuz o'girib qaraydi. Shundan so'ng qahramon voqealar girdobiga tortiladi. Ushbu variantning xarakterli jihatlaridan biri Baxil parining qarg'ishi hisoblanadi. Asarning boshlanish qismida Baxil parining noroziligiga uchragan Ahmad qarg'ish oladi. Shundan so'ng


⁴ T.Mirzayev. O'zbek xalq baxshilarining epik repertuari 1979.

⁵ ZO 'FA Inv 22.Ergash Jumanbulbul o'g'li, "Yakka Ahmad"dostoni

qahramon kurash girdobiga tortiladi. Muqaddas Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda shunday deyilgan uch turdagi kishining qarg'ishi o'tadi:

- 1.Ota-ona
- 2.Musofir
- 3.Mazlum

Baxil pari obrazi bu yerda chin dildan xafa bo'lgan inson: mazlum qiyofasida namoyon bo'lgan. Shuning uchun ham uning qarg'ishi urdi. Shundan so'ng qahramon ko'plab qiyinchiliklarni boshidan kechirdi. Asar voqealarida qarg'ish dostonning tugunini tashkil etsa, Baxil parining duosi yechim hisoblanadi. Ya'ni Baxil parining duosi bilan qahramon hayotidagi kulfatlar o'z nihoyasiga yetdi.

Qarg'ish  Duo

Xulosa sifatida aytganda, Yakka Ahmad dostonining variantida qarg'ish duoga zid qo'yilgan. Shuningdek, obrazlarning xarakterli jihatlari tizimli ravishda yoritilganligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir.

“Yakka Ahmad” dostonining har ikkala variantida ham Ernazarxon obrazi sodiq do'st hisoblanadi. Rahmatilla Yusuf o'g'lining “Yakka Ahmad” dostonida Ernazarxon Do'rmon elining xoni bo'lgan Qoraxondan avval o'sha yurtda xon bo'lgan. Uning Oqiloy degan suyukli yori bo'lgan.

Ergash Jumanbulbul variantida esa Ernazarxon Balx to'rasi ekanligi aks etgan. Qirq yigiti bilan ovga chiqqanligi tasvirlangan. Uning yori yo'q. Dostonning so'nggida uning Baxil pariga uylanish motivi aks ettirilgan.

Epos mantig'iga ko'ra, dostonning nihoyasida qahramonlarning murod-maqсадlariga yetishivu mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Dostonda qahramonlarga berilgan ta'riflar yuksak badiiy qimmatga ega. Muallif ijobiy obrazdagi qahramonlarni yaxshi ko'rib, salbiy obrazdagi qahramonlarni esa keskin tanqid bilan ta'riflaydi. Bu borada yorqin tasavvurga ega bo'lish maqsadida dostonda keltirilgan parchalarga e'tibor qaratishimiz lozim.

Kampirning bir Oqqiz degan qizaloqqinasi bor edi., xotinlarning buzaloqqinasi bor edi., bu Oqiloy parining kanizi edi. O'zi Oqqiz go'shtligina, to'la-to'shligina edi. Qahramonga berilgan ta'rifdan anglashilyaptiki, Oqqiz kanizlarning ichidagi eng botirroq 'I, dovyuragidir. Uning sur'ati ham xuddi siyrati kabidir. Ko'rinish jihatidan ham to'lachadan kelgan, baquvvat ayol. Ushbu personajning asardagi voqealarning rivojida, shuningdek, doston qahramonlarining bir-biriga yetishuvida xizmatlari ahamiyatli. Qolaversa, “Ernazarxon” dostonini ushbu personajsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Agar Oqqiz obrazi dostonga kiritilganida doston voqealarining rivoji sezilarli darajada o'zgarishga ega bo'lardi.

Rahmatilla Yusuf o'g'lining “Yakka Ahmad” dostonidagi Oqbilak oyim: Ajab bir to'lishib, olmaday pishib, ko'kraklari ko'tarilib, shishib, rosagina enib, oyday to'lib, miyig'ida kulib turibdi.

“Yakka Ahmad” shunda aql-xushini yo ‘qotib, sur ‘atga mahliyo bo ‘lib qolib, karvon bobodan gap so ‘rashni ham unutilib qo ‘yibdi.

Tasvirlardan ma ‘lum bo ‘lyaptiki, Oqbilak yetilib, benihoya suluv qizga aylangan.

Shu bilan birgalikda dostonning boshqa variantlariga nisbatan ushbu variantda Oqbilak serg ‘ayrat, dovyurak, kuchli, mushohadali obraz. Aynana eposning voqealar rivojida ushbu fikr o ‘z tasdig ‘ini topadi. Oqbilak qirq jallodning hiylagarligini anglab, ularni namokobli qaynoq qozonga solib, chiqarib tashlayveradi. Namokobli qozonga qozonga tushgan jallodlar jon taslim qilishadi birin-ketin.

Qahramonning bunday jasorat bilan harakat qilishi dostonning boshqa variantida uchramaydi. Demak, Boysarida yetishmagan jasorat: Oqbilakda bor edi. Oqbilak ham Oqbilak edi-da. Keng yag ‘rinli, zo ‘r halqumli, novcha, go ‘zal boy qizi, dovdirab yurgan qirq jallodni qulog ‘idan ushlab ko ‘tarib, namokobli qaynoq qozonga olti yashar bolani botirib olganday qilib, namokobga pishib, bir sho‘ng‘itib chiqarib tashlayverdi. Namakob qozonga sho ‘ng ib chiqqan jallod hech narsani sezmay, qotib jon beraberdi. Shunday qilib Oqbilak Oyim navbatma-navbat Xaybar ko‘sasigacha qoldirmay, qirq jallodning hammasini namakobli qaynoq qozonga sho‘ng‘itib, o‘ldirib tamom qildi.

Shu o ‘rinda Sarixon ismining ma ‘nosini izohlab o ‘tish maqsadga muvofiqdir. Sarixon so ‘zi sar +i+xon o ‘zak qismlariga ajraladi. Sar forscha so ‘zdan olingan bo ‘lib, bosh degan ma ‘noni anglatadi. I esa fors tilidagi izofa hisoblanadi. Xon qo ‘shimchasi esa o ‘zbek tili qatlamiga mansub ot yasovchi qo ‘shimcha. Ushbu so ‘zda bosh so ‘zi (kalla) insonning tana a ‘zosi emas, balki bosh, ya ‘ni, bosh (katta) si ma ‘nosida qo ‘llangan. Demak, xonlarning kattasi degan ma ‘no anglashilyapti.

Qoraxon so ‘zining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo ‘lsak, tarixdan ma ‘lumki, Markaziy Osiyoda X asrda Qoraxoniylar sulolasi hukmronlik qilishgan. O ‘sha davr manbalariga ko ‘ra, “Qoraxon” so ‘zi buyuk, kuch-qudrat degan ma ‘nolarni anglatgan. Shu bois Qoraxoniylar sulolalarining nomlaini shunday atashgan. Ushbu sulola qudratli bo ‘lgan. Rus, turk va Yevropa xalqlarida qora motam, aza ramzi hisoblaanadi. Boshqa Osiyo xalqlarida kuch-qudrat ramzi sanaladi. Demak, Qoraxon: buyuk, qudratli xon demakdir.

Ernazarxon” dostonida shunday bir obraz borki, u bir ko ‘rinib o ‘tuvchi obrazlar sirasiga kiradi. Bu mehnatkash obrazi. U dostonida atigi bir o ‘rinda: pastda turib, tosh otish vaziyatida namoyon bo ‘ladi. Baxshi keskin tanqid bilan ta ‘riflaydi obrazni. Negaki, u ham Oqiliyday pariga ishqibozdir.

Yor dardiga mehnat qilib yotibdi. Epos mantig ‘iga ko ‘ra, yor eng kuchli, qudratli qahramonlargagin nasib etishi keark. Bunday qahramon doston voqealarining boshidan to oxiriga qadar ayovsiz kurashlarda ishtirok tib, g ‘alaba qozonib, yorga munosibligini isbotlaashi darkor.

Mehnatkash obrazi Oqiloyday parigaa munosib emas, shu bois baaxshi uni tanqid bilan ta 'riflagan. Ana, uzunigi to 'qson bir yarim gaz, vuqray poycha, turna bo 'yin, ko 'zi sariq, bir ko 'zi tolg 'ir, dimoqqinasi choq, badanginasi ko 'mirday, tishginasi oppoq, o 'zi boladay, to 'bisiga ikki uy tikib bersa ham ancha yer hilvat qoladi, quyruq domdanaday, orqa pas moladay. Ana shunday badbashara bachchag 'arning Oqiloy pariga ishqiboz bo 'lganiga qaytay.

Eposdagi obrazlar asosan ot va sifat so 'z turkumiga mansubdir. Xususan,

Qora+xon	Sifat+ot yasovchi qo 'shimcha
Oq+bilak	sifat +ot
Sari+xon	ko 'makchi+ot yasovchi qo 'shimcha
Oq+qiz	sifat +ot
Er+nazar	ot+ot

Ernazar cho 'pon bilan uchrashadi. Uning ismi Qoryog 'di. Ushbu ot qo 'shimchali –di o 'tgan zamon fe 'li komponentidan iborat so 'z dostonning har ikkala variantida ham uchramaydi. Qor oq rangli, yumshoq tabiat hodisasi. Cho 'pon oqko 'ngil, tabiatan yuvosh inson. Demak, ushbu obraz ismi-jismiga monand. Doston voqealarining rivojida ushbu obraz cho 'ponik kiyimarini Ernazarga berib, uning Chin shahriga yetishida ko 'mak bergan.

Doston voqealarini tahlil qiladigan bo 'lsak, obrazlarni ikki guruhga bo 'lishimiz lozim. Yetakchi obrazlar va ko 'makchi obrazlar. Aynan Oqqiz, Qoryog 'di, hamda dostonning har ikkala variantida uchraydigan pirlar va eranlarning qahramonlarga og 'ir damlarda yordam berishi kabilar misol bo 'la oladi.

Yuqorida nomlari keltirilgan obrazlarning asar voqealaridagi o 'rni muhim darajada. Ushbu obrazlarsiz asar voqealarining yo 'nalishi butkul o 'zgarib, qahramonlarning taqdirida ham hal qiluvchi ro 'l o 'ynardi.

“Yakka Ahmad” dostonining Ergash Jumanbulbul variantida ot obrazi berilgan. Ushbu obraz voqealar girdobiga olib kirilgan. Ot xuddi insondek, voqealar rivojida faol harakat qiladi.

Xonchorbog 'da turgan ot – Bo 'ztarlon ayyorni ko 'rishi bilan to 'rt oyog 'ini yerga tirab chinqiradi. Bo 'ztarlonning na 'ra tortgan oh-u nolasiga, osmon bilan yerlar larzaga keladi. Otning chinqirgan tovushiga tog 'lar toqat qilmadi. Jonivor g 'ujunga boshini urib, odamday ko 'zidan yoshini to 'kdi. Ot qancha siltasa ham oyog 'i yetmadi. Oxiri: qora yerni tishlab, xuddi odamday ko 'zini yoshladi. Agar Ahmadning yoshligini sinchiklab, o 'rganadigan bo 'lsak, aynan Ahmad yettiga kirganida Tarlon tug 'ilgan edi. Endilikda Tarlon yettiga kirdi. Yetti soni simvolik nuqta 'yi nazardan sirli degan ma 'noni anglatadi. Tarlon oddiy ot emas, u sirli ot. Xuddi insonlardek, insoniy hislarga ega. Dostonning boshqa variantlarida esa otning bu qadar faol harakatini uchratmaymiz.

Ergash Jumanbulbul o 'g 'lining "Yakka Ahmad" variantida epic formulalar ham berilgan. Jumladan:

Ot boradi arillab,
Otgan o 'qday sharillab,
Ot alqimi tong shamoli,
Mis karnayday zarillab.

Ma 'lumki, o 'q kamondan otilganida shiddat bilan oldinga harakat qiladi. Muallif qahramonning shiddat bilan otda oldinga o 'lg 'a intilishini tasvirlangan.

Ot chopilar baland tog 'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Qirq kecha, qirq kunduz yurib Ahmadjon,
Qistab chiqdi, Milkar tog 'ning ustiga.

Yuqoridagi epik formulalardan otning shiddat bilan yo 'lga otlanganligi tasviri berilgan. Qirq kachayu-kunduz yo 'l yurib, bedorlikda tog 'ning ustiga chiqqanligi tasviri berilgan.

Ahmad oddiy obraz emas, u dostonda muallif tomonidan yigit me 'roji deb tasvirlangan. Bilamizki, me 'roj ko 'tarilish, Allohga yaqinlashish hisoblanadi. Payg 'ambarimiz me 'roj kechasida Allohga yaqinlashganlar, Parvardigor huzuriga ko 'tarilganlar. Shu ma 'noda olib qaraydigan bo 'lsak, yigitlarning ichinda Allohga eng yaqini degan ma 'no anglashiladi.

Shunday voqealar rivojida yana epic formulalar keladi.

Dam shu damdir, o 'zga damni dam dema,
Shukr qilgin, davlatingni kam dema,
Aytadigan maslahating shu bo 'lsa,
Bu rabotdan oting irg 'ir g 'am yema.

Otning bu rabotdan oshib o 'ta olishi, shuningdek, qiyinchiliklarni yengib keta olishi tasvirlangan. Tarlon har qanday qiyinchiliklarni yengishga qodirligini ta 'kidlagan.

Ot chopsa, gumburlar tog 'ning darasi,
Uzoq biling ikkovining orasi,
Obro 'ber, deb o 'g 'lon qistab boradi,
Ko 'rinmaydi Xonchorbog 'ning qorasi.⁶

Qahramonning Xonchorbog 'ga ketish yo 'lidagi mashaqqatli safari badiiy jihatdan yuksak tasvirlangan.

Paydo bo 'ldim ikki gavhar donadan,
Ko 'tarilib uchdim manzil, xonadan,
O 'laman deb, g 'am yemayman, ayyorlar,

⁶ Bulbul taronalari. 1-jild-104b.

Armonim shul yolg 'iz edim, enadan.

Yuqoridagi epik formuladan anglashilyaptiki, Ahmad yolg 'iz farzand. Do 'rmonda ota-onasini yolg 'iz tashlab ketgan yorga yetish nomusida. Farzand dog 'i alamli sinov. Ayniqsa, yolg 'iz farzand dog 'ida ota-ona ado bo 'ladi. Ahmad shu o 'ylar iskanjasida. O 'lim - u uchun qo 'rqinch emas. Ota-onaning yuzini yorug ' qilib, yurtga qaytish Ahmadning istagidir. Biroq, taqdir beshavqatlik qilgan. Mana shu kabi ma 'nolar epic formulalar zahiriga singdirilgan. Yuqoridagi epik formulalarning barchasini Ahmad obrazi birlashtirib turibdi. Dostonning keyingi variantlaridagi epik formulalarni esa Ernazar obrazi birlashtirib turibdi.

Sinekdoxa – butun narsaning nomini uning qismi nomi bilan va aksincha, qism nomini butun narsaning nomi bilan ataydigan ma 'no ko 'chishi turi. Ahmad yolg 'izligi ko 'ngliga kelib, g 'a-alam anduhida shunday deydi:

Attang-a, qolmadi biror tuyog 'im

baytidagi tuyog (qism) so 'zi bola, farzand butun ma 'nosida qo 'llangan. Demak, oshiq o 'zidan nasl qolmaganligi firoqida bayt keltirgan.

Keyingi misralarda qahramon dramatismni kuchaytirib, yuqoridagi tug 'yonlarini aniqroq ifodalaydi.

Qolmadi ortimda biror tirnog 'im

tirnog (qism) so 'zi bola, farzand (butun) ma 'nosida kelgan. Endi Ahmadning yuqoridagi fikrlari konkretlashadi. Ortidan bironta ham zurriyodi qolmaganligini aytib, ko 'ngli to 'lib ketadi. Zero, yashashdan maqsad ham oila qurish, farzandli bo 'lishdir. Hayotining mazmunsiz o 'tganligi ifodalanib kelgan.

Baytlar qofiyasi ham rang-barang va betakror tuzilgan xuddi ipga tizilgan marjon kabi. Masalan:

Podsho edim, cho 'pon bo 'ldim,

Oltin edim, cho 'yan bo 'ldim,

Qimmat edim, arzon bo 'ldim,

To 'ra edim, pirdon bo 'ldim.

Yuqoridagi to 'rtlikning qofiyadosh so 'zlarida tazod san 'ati qo 'llangan. Aynan unikal jihati shundaki, to 'rt misraning har birida tazod san 'ati qo 'llangan.

Podsho-cho 'pon, oltin-cho 'yan, qimmat-arzon, to 'ra-pirdon.

“Yakka Ahmad” dostonida misralardagi ma 'noni kuchaytirish uchun maqta 'da ritorik so 'roq gap keltirilgan. Jumladan:

Ilohi Oqbilak o 'lsin yoronlar,

Bu o 'tlarga qanday toqat etayin?!

Bu azoblarga bardosh bera olmayman deyilmoqchi baytda. Ya 'ni bo 'lishli gapdan bo 'lishsiz ma 'no ifodalangan.

Ernazarining safarga otlash pallasida qahramonning shiddat bilan yo 'lni bosib o 'tishi insonda voqealarga daxldorlik, hayrat tuyg 'ularini shakllantiradi.

Ernazarning qirq bedov oti yo 'lda otilib boradi. Yo 'ldoshlariga qaramay suvsiz cho 'lda yutinib bordi. Otiga ayqich-uyqich qamchi berib, tog 'ning balandiga, pastiga chopdi. Ushbu dostonda qahramonning ruhiy holati tasviri ham berilgan. Ernazarni tanasini ko 'rishi bilan Qoraxon ko 'zidan oqqan yoshlari xuddi qon kabi edi. Ya 'ni farzand hasratida yurak-bag 'ri yonib, ko 'zidan yosh emas, qon to 'kdi. Qoraxon hushidan ketdi.

Qolaversa, otning ruhiy holati ham keltirilgan. Ot xuddi insondek, qayg 'urib, ko 'zidan yosh tomib, har tarafga qarab kishnab, Ahmadning ustiga o 'zini tashladi. Agar ushbu obrazlarning tasviri bo 'lmaganida doston bu qadar yuqori ta 'sir kuchiga ega bo 'lmasdi. Negaki, har bir obrazning ruhiy holati ishonarli va ta 'sirchan tasvirlangan. "Sizlarga men bir so 'z aytaman, quloq solib eshitinglar. Sizlar muncha yig 'lagan bilan Ahmadni tirgizib olasizlarmi?!"

Sizlar shuncha yig 'laganingiz bilan Ahmadni hushiga keltira olmaysiz,-degan mazmun anglashilyapti. Qolaversa, ushbu gapda ritorik so 'roq gap qo 'llangan. Bo 'lishli gap orqali bo 'lishsiz ma 'no ifodalangan.

Rahmatilla Yusuf o 'g 'lining "Ernazarxon" dostoni variantida Ernazarning ahdahor bilan uchrashuvi dostonning tugunini tashkil etadi. Dostonda Oqiloy erkak qiyofasiga kirib, jang qilishi bilan yomonliklar, qahramonlar hayotidagi kulfatlar aridi. Dostonda aynan Oqiloyning erkak qiyofasiga kirib, jang qilib, Ernazar bilan g 'olib bo 'lishi orqali dostonning yechimi berilgan. Doston voqealarini tahlil etar ekanmiz, "Ernazarxon" dostonining Rahmatilla Yusuf o 'g 'li variantida ayolning erkak qiyofasiga kirishi voqeasi tasvirlangan. Po 'lkan shoirning "Ernazarxon" dostonida esa Ernazar suygan yorini ko 'rish maqsadida ayol kiyimini kiyadi. Demak, qahramonlar yor ishqiga yetishish uchun xattoki ayol va erkak kiyimlarini kiyib bo 'lsa ham asar eposning voqealar rivojida faol harakat qilishgan. Rahmatilla Yusuf o 'g 'lining "Ernazarxon" dostonida o 'lim motivi tasvirlangan. Sangilxon o 'lgan. Epik syujet maromiga yetkazilib tugallangan. Doston voqealaridagi syujet rivojini tahlil etar ekanmiz: epos voqealari mantiqiy jihatdan "Yakka Ahmad" dostoni "Ernazarxon" dostonining mantiqiy davomi. "Ernazarxon" dostonining Po 'lkan shoir variantida doston so 'nggida to 'y motivi uchramaydi. Epos mantig 'iga ko 'ra esa har bir doston so 'nggida to 'y motivi bo 'lishi kerak. Dostonning boshqa variantlarida to 'y motive mavjud. Marosim epik formalarning transformatsiyasi orqali yuzaga chiqadi. Ushbu arxaik epik formaning bevosita marosim bilan aloqadorlik tomonlarini tadqiqi eish eposning tub asoslarini yoritishda o 'ta muhimdir.

"Ernazarxon" dostonida Sangilxon sovchilikka borgan pallada, Zaxarboy:

Qudaga baring yoqing,
Xush, deb qomatni buking!
To 'yni olib kelgan so 'ng,
Og 'ziga unlar tig 'ing!

Ushbu jumlada qadimgi marosim aks etgan. “Og ‘ziga unlar tig ‘ing” –to ‘yga kelgan qudalarga yaxshi niyatlar bilan un surtish odati to ‘y marosimidagi magik harakatlardan biri. Dostonning keyingi o ‘rinlarida esa marosimlar tadrijiy davom etadi. Sangilxon podshoga qarab Qahhorboy bir so ‘z aytayapti:

Ot to ‘rvaga somon tiqib, tutatib,
Nikoh kuni, qo ‘y, qamar, deb oladi.
Kallasiga shu tutunni soladi.
Tutun yutgan, esi angrab qoladi,
Janjal qilmang, urushmanglar qudalar,
Taomil-rasmimiz shunday bo ‘ladi.

Ushbu baytdan anglashilyaptiki, un surtish marosimidan so ‘ng nikoh kuni olov yoqib, tutatiladi. Aynan boshidan tutun hidlatiladi. Hozirgi kunda ham nikoh kunida olov marosimi barcha viloyatlarda saqlanib qolgan qadimiy marosimlardan biri hisoblanadi. Olov marosimi magik marosim hisoblanadi. Qadimiy diniy e ‘tiqodlarga ko ‘ra olov yovuz ruh va balo-qazolardan asrovchi magik kuch hisoblangan. Shu bois ham kelin va kuyovning boshidan olov yurgiziladi. Kelin-kuyov olov atrofida aylanadi. Epos va marosim bir-biri bilan chambarchas bog ‘liq jarayon. Marosimlarning tarixiy ildizlarini yoritishda eposga murojaat etish tabiiy. Eposdagi motivlarni esa marosimlar bilan qiyosiy o ‘rganishimizdagina ularning mazmun mohiyati yanada to ‘laroq ochilishi mumkin.

Maqol ibratli so ‘zdir. Shunday so ‘zki, so ‘zga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta ‘sirchan qiladi. Zamon o ‘tishi bilan ko ‘p so ‘zlar eskiradi. Maqollar ham o ‘zgaradi, lekin juda sekin o ‘zgaradi. Shunga ko ‘ra tilshunoslar tildagi maqollarni o ‘rganib, nutq sohiblarining yoshi va saviyasiga muvofiq o ‘rganishlari uchun ish olib boradilar. Hozirgi bosqichda tillarning maqollar majmuasini ilmiy o ‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Maqollar faqat til materiallaridangina yaratilgan emas, balki tilning beqiyos qudrati tufayli vujudga kelgandir. Bu holat nutqda keng qo ‘llanib kelayotgan maqollarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni talab qiladi. Dostonning barcha variantlarida maqollardan namunalar keltirilgan. Jumladan: So ‘z suyakdan o ‘tar, tayoq etdan o ‘tar” maqoli keltirilgan. Ya ‘ni til bilan qalbga yetkazilgan jarohat bitmaydi, suyak-suyagidan o ‘tib ketadi degan ma ‘noda qo ‘llangan. Keyingi o ‘rinda: Elga el kelsa davlat, eldan el ketsa mehnat” maqoli orqali fuqarolar soni ko ‘payishi bilan soliqlar, tushumlar soni ko ‘payishiga ishora mavjud. Yolg ‘iz bola yovdan yomon maqoli orqali: yolg ‘iz farzandli inson har doim farzandini sog ‘inchida yashashi aytilgan. “Do ‘st achitib aytadi, dushman kuldirib aytadi” maqoli orqali Qaldirg ‘och akasiga achichiq bo ‘lsa ham haqiqatni aytayotganligi, yori uchun kurashishi lozimligi nazarda tutilgan. Sovchilikka kelganlar: “Sichqon uya topilsa, ming tangaga olguday bo ‘lib qoldilar”. Mazmuni: Qochish uchun hamma narsaga tayyor edilar. Keyingi o ‘rinlarda: “Tanimasni siylamas” maqoli orqali har kim ham

tanimgan insoniga e'tibor va mehmondorchilik qilmaydi ma'nosi qo'llangan. Sangilxon aytdi: "O'zingdan bo'lgan bolaga – qaytib aytasan dalaga". Mazmuni: bolang nopok chiqsa, begonaga qanday dardingni aytasan. Boshqalarning nima aybi bor, hamma ayb o'zingda. Axir, seni tarbiyangni ko'rganku. "Sigir tuqqan tanadir, Emchak bergan enadir". Mazmuni: Boqqan odam emas, sut bergan odam onadir. Tuqqan odamgina onasi hisoblanadi. "Molning juni tikka bo'lsa, semiradi". Mazmuni: molni yaxshi boqishsa, semiradi. "Ko'za sindirgan aziz, suv keltirgan xor". Mazmuni: ko'zani sindirish oson, suvni olib kelish qiyin. Hech narsa qilmay ko'zani sindirgan odam izzatda, qiynalib suv keltirgan odam xorlikda. "Qochganga qoruv yo'q". Mazmuni: Qochgan odamga hech narsa bo'lmaydi, qutilib qoladi jazo yo'q. "Yolg'izlik yovdan yomon". Mazmuni: yolg'izlik xuddi dushman kabi insonni kemiradi. Unga ruhiy juhatdan zarba beradi. "Shirin-shirin so'z bilan ilon inidan chiqibdi, achchiq-achchiq so'z bilan pichoq qinidan chiqibdi". Mazmuni: yaxshi gapga har qanday qahri qattiq inson ham yumshaydi. Yomon gap bilan inson o'ziga dushman va kulfatlarni orttiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. "Yakka Ahmad" o'zbek xalq ijodi yodgorliklari. O'n to'rtinchi jild nashrga tayyorlovchilar: Zarifov H, Eshonqulov J. Toshkent: G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi-2019.
2. Abdullaev R. Baysun: traditsionnaya muzыkalnaya kultura.– Tashkent, 2016. – 180 b.
3. Avazxon ota yurtida. Doston. Aytuvchi Boborayim baxshi Mamatmurodov. – Termiz: Jayhun, 1999. – 220 b.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. Iltom. – Toshkent: Fan, 1979. –B.180.
5. Alp Qo'ng'irotbek. Doston. Aytuvchi CHori baxshi Umirov. – Toshkent: Tafakkur, 2014.– 200 b.
6. Alpomish. Doston. Aytuvchi Umir shoir Safarov. YOzib oluvchilar O.Sobirov, Q.Muhammedov. Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzaev, J.Eshonqulov, R.CHoriev. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 400 b.